**УТВЕРЖДЕН**

**приказом Генерального директора ООО «UNITEL» № 699 от 07.09.2026**

*Редакция от «7» сентября 2026 г.*

# ДОГОВОР ПРИСОЕДИНЕНИЯ

**г. Ташкент**

Настоящий Договор присоединения (далее – «**Договор**») между Обществом с ограниченной ответственностью «UNITEL» (далее – «**Оператор**») и Абонентом состоит из стандартных общих положений и единых условий по купле-продаже мобильных устройств на условиях рассрочки и предоставления услуг сотовой связи на условиях специальных тарифов для абонентов предоплатной системы обслуживания потребительского сегмента, и устанавливает стандартные права и обязанности Сторон.

Сторонами Договора являются Оператор и Абонент. Абонентом является физическое лицо, заключившее настоящий Договор в порядке, предусмотренном в Разделе 3 «Порядок заключение Договора», при условии, что данное лицо принимает условия настоящего Договора в соответствии с Гражданским кодексом Республики Узбекистан.

Каждая Сторона гарантирует другой Стороне, что обладает необходимой правоспособностью, а равно всеми правами и полномочиями, необходимыми и достаточными для присоединения к настоящему Договору и исполнения обязательств в соответствии с его условиями.

## 1. ТЕРМИНЫ И ОПРЕДЕЛЕНИЯ

1.1. Термины, обозначенные заглавными буквами и используемые в настоящем Договоре, будут иметь следующее значение:

| | |
|---|---|
| «**IMEI**» | уникальный 15-значный международный идентификатор мобильного оборудования, присваиваемый каждому устройству со слотом для SIM-карты (смартфоны, планшеты, модемы); |
| «**Абонентский номер**» | номер, выделяемый Оператором Абоненту по договору на предоставление услуг сотовой подвижной |

**TASDIQLANGAN**

**“UNITEL” MChJ Bosh direktorining 699-sonli buyrug‘i bilan 07.09.2026 sanasida**

*“7” sentabr 2026 y. tahriri*

# QO‘SHILISH SHARTNOMASI

**Toshkent shahri**

“UNITEL” mas’uliyati cheklangan jamiyati (bundan keyin **“Operator”** deb yuritiladi) va Abonent o‘rtasidagi ushbu Qo‘shilish shartnomasi (bundan keyin **“Shartnoma” deb yuritiladi)** iste’molchilar segmentiga xizmat ko‘rsatishning oldindan to‘lov tizimi abonentlari uchun mobil qurilmalarni muddatli to‘lov shartlari bilan oldi-sotdi qilishga hamda maxsus tariflar asosida uyali aloqa xizmatlarini taqdim etishga doir standart umumiy qoidalar va yagona shartlardan iborat bo‘lib, Tomonlarning standart huquq va majburiyatlarini belgilaydii.

Shartnoma tomonlari Operator va Abonent hisoblanadi. Abonent O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga muvofiq ushbu Shartnoma shartlarini qabul qilgan hamda 3-bo‘lim “Shartnoma tuzish tartibi”da nazarda tutilgan tartibda ushbu Shartnomani tuzgan jismoniy shaxsdir.

Har bir Tomon boshqa Tomonga zarur huquqiy layoqatga, shuningdek ushbu Shartnomaga qo‘shilish va uning shartlariga muvofiq majburiyatlarni bajarish uchun zarur va yetarli barcha huquq va vakolatlarga ega ekanligini kafolatlaydi.

## 1. ATAMALAR VA TA’RIFLAR

1.1. Ushbu Shartnomada bosh harflar bilan belgilangan va qo‘llaniladigan atamalar quyidagi ma’nolarga ega bo‘ladi:

| | |
|---|---|
| “**IMEI**” | SIM-karta uchun slotga ega har bir qurilmaga (smartfonlar, planshetlar, modemlar) beriladigan noyob 15 xonali xalqaro mobil uskunalar identifikatori; |
| “**Abonent raqami**” | uyali ko‘chma radiotelefon aloqa xizmatlarini ko‘rsatish shartnomasi asosida Operator tomonidan abonentga |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | радиотелефонной связи, по которому идентифицируется подключенное к сети телекоммуникаций абонентское оборудование при соединении с ним других устройств; | | beriladigan, telekommunikatsiya tarmog'iga ulangan abonent qurilmasi boshqa jihozlar bilan bog'langanda aniqlash imkonini beradigan raqam; |
| «**Акт приема-передачи**» | документ, подписываемый Сторонами и подтверждающий передачу Мобильного устройства от Оператора Абоненту по форме, приведенной в Приложении № 2 к настоящему Договору; | "**Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi**" | Tomonlar tomonidan imzolanadigan va ushbu Shartnomaning 2-ilovasida keltirilgan shakl bo'yicha Operatordan Abonentga Mobil qurilma topshirilganligini tasdiqlovchi hujjat; |
| «**Ежемесячный платеж**» | платеж Абонента в пользу Оператора, состоящий из платежа за Мобильное устройство и Абонентской платы, подлежащий внесению ежемесячно в порядке, установленном Условиями предоставления рассрочки и соответствующего Тарифного плана; | "**Oylik to'lov**" | Operator foydasiga Abonent tomonidan to'lanadigan, Mobil qurilma uchun to'lov va Abonent to'lovidan iborat bo'lgan to'lov bo'lib, muddatli to'lov shartlari hamda tegishli tarif rejasida belgilangan tartibda har oy amalga oshirilishi lozim; |
| «**Заявитель**» | физическое лицо, намеренное заключить настоящий Договор; | "**Ariza beruvchi**" | ushbu Shartnomani tuzishni istagan jismoniy shaxs; |
| «**Заявление о присоединении**» | заявление о присоединении к Договору по форме, указанной в Приложении №1 к Договору; | "**Qo'shilish to'g'risidagi ariza**" | Shartnomaning 1-ilovasida ko'rsatilgan shakl bo'yicha Shartnomaga qo'shilish haqidagi ariza; |
| «**Контрактный период**» | период времени, начинающийся с даты внесения первого Ежемесячного платежа и продолжающийся в течение 12 (двенадцати) месяцев. В случае несвоевременной оплаты Ежемесячного платежа, при отсутствии досрочного прекращения настоящего Договора, срок окончания | "**Kontrakt davri**" | Birinchi Oylik to'lov kiritilgan sanadan boshlanib, 12 (o'n ikki) oy davom etadigan vaqt davri. Oylik to'lov belgilangan muddatda amalga oshirilmagan taqdirda, mazkur Shartnoma muddatidan oldin bekor qilinmagan bo'lsa, Kontrakt davrining tugash muddati bunday kechikish davriga |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | Контрактного периода подлежит соответствующему переносу на период такой просрочки, при этом после погашения задолженности дальнейшее исчисление Контрактного периода продолжается с учетом измененной даты окончания; | | mutanosib ravishda suriladi. Bunda qarzdorlik bartaraf etilgandan soʻng Kontrakt davrini hisoblash oʻzgartirilgan tugash sanasini inobatga olgan holda davom ettiriladi; |
| «**Мобильный баланс**» | денежные средства Абонента, учтённые на его лицевом счёте у Оператора и предназначенные для оплаты услуг Оператора; | "**Mobil balans**" | Abonentning Operatordagi shaxsiy hisobida qayd etilgan va Operator xizmatlariga haq toʻlash uchun moʻljallangan pul mablagʻlari; |
| «**Мобильное устройство**» | мобильный телефон, передаваемый Абоненту Оператором по настоящему Договору и указанный в Условиях предоставления рассрочки; | "**Mobil qurilma**" | mazkur Shartnoma boʻyicha Operator tomonidan Abonentga topshiriladigan hamda muddatli toʻlov shartlarida koʻrsatilgan mobil telefon; |
| «**Остаточная стоимость**» | непогашенная часть стоимости Мобильного устройства, предоставленного Абоненту в рассрочку, подлежащая уплате Оператору в случае досрочного расторжения Договора либо при ином наступлении оснований для досрочного взыскания, определяемая как разница между полной стоимостью Мобильного устройства и суммой внесённых Абонентом платежей за Мобильное устройство в рамках Ежемесячных платежей на дату такого расторжения или наступления соответствующих оснований; | "**Qoldiq qiymat**" | Shartnoma muddatidan oldin bekor qilingan yoki muddatidan oldin undirish uchun boshqa asoslar yuzaga kelgan taqdirda Operatorga toʻlanishi lozim boʻlgan, Abonentga muddatli toʻlov sharti bilan taqdim etilgan Mobil qurilmaning toʻliq qiymati bilan bunday bekor qilish yoki tegishli asoslar yuzaga kelgan sanaga qadar Abonent tomonidan kiritilgan Oylik toʻlovlar miqdori oʻrtasidagi farq sifatida aniqlanadigan toʻlanmagan qismi; |
| «**Отчетный период**» | повторяющийся период продолжительностью 1 (один) месяц в течение | "**Hisobot davri**" | Shartnoma amal qilish muddati davomida 1 (bir) oylik takrorlanuvchi davr |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | срока действия Договора, исчисляемый с даты и времени внесения первого Ежемесячного платежа. Каждый последующий Отчетный период начинается в дату и время, соответствующие дате и времени первоначального списания Ежемесячного платежа. В случае если соответствующая календарная дата отсутствует в очередном месяце, списание Ежемесячного платежа осуществляется в последний календарный день такого месяца в соответствующее время. При несвоевременной оплате Ежемесячного платежа дата начала последующих Отчетных периодов переносится на дату и время успешного осуществления очередного Ежемесячного платежа; | | boʻlib, u birinchi Oylik toʻlov amalga oshirilgan sana va vaqtdan boshlab hisoblanadi. Har bir keyingi Hisobot davri Oylik toʻlov dastlab yechib olingan sanaga va vaqtga mos keladigan sanada va vaqtda boshlanadi. Agar tegishli kalendar sana navbatdagi oyda mavjud boʻlmasa, Oylik toʻlov oʻsha oyning oxirgi kalendar kunida, tegishli vaqtda yechib olinadi. Oylik toʻlov oʻz vaqtida toʻlanmagan taqdirda, keyingi Hisobot davrlarining boshlanish sanasi navbatdagi Oylik toʻlov muvaffaqiyatli amalga oshirilgan sana va vaqtga koʻchiriladi; |
| «**Официальный сайт Оператора**» | официальный веб-сайт Оператора по адресу: www.beeline.uz; | “**Operatorning rasmiy sayti**” | Operatorning www.beeline.uz manzilida joylashgan rasmiy veb-sayti; |
| «**Рабочий день**» | рабочий день при пятидневной рабочей неделе с двумя выходными днями (суббота и воскресенье) с учетом нерабочих праздничных дней, установленных законодательством Республики Узбекистан; | “**Ish kuni**” | Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan ishlanmaydigan bayram kunlarini hisobga olgan holda, besh kunlik ish haftasidagi ikki dam olish kunli (shanba va yakshanba) ish kuni; |
| «**Скоринг**» | процедура оценки Заявителя, осуществляемая Оператором на основании предоставленных документов, а также | “**Skoring**” | Operator tomonidan taqdim etilgan hujjatlar, shuningdek, boshqa qonuniy manbalardan olingan ma’lumotlar asosida, Ariza beruvchining muddatli |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | данных, полученных Оператором из иных законных источников, с целью проверки соответствия Заявителя условиям для присоединения к настоящему Договору. Результаты Скоринга используются Оператором для принятия решения о заключении Договора; | | to'lov olish shartlariga muvofiqligini tekshirish maqsadida amalga oshiriladigan baholash tartibi. Skoring natijalari Operator tomonidan Shartnoma tuzish to'g'risidagi qarorni qabul qilish uchun foydalaniladi; |
| «**Страховая компания**» | юридическое лицо, осуществляющее деятельность по страхованию в соответствии с законодательством Республики Узбекистан и предоставляющее страховое покрытие в отношении рисков, связанных с Мобильным устройством; | "**Sug'urta kompaniyasi**" | O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi va Mobil qurilma bilan bog'liq xatarlarga nisbatan sug'urta qoplamasini taqdim etuvchi yuridik shaxs; |
| «**Таблица расчёта платежей**» | таблица, содержащая сведения о размере и количестве Ежемесячных платежей, приведенная в Условиях предоставления рассрочки; | "**To'lovlarni hisoblash jadvali**" | Muddatli to'lov shartlarida keltirilgan oylik to'lovlarning miqdori va soni to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan jadval; |
| «**Тарифный план**» | специальный тарифный план, выбранный Абонентом при присоединении к настоящему Договору и указанный в Заявлении о присоединении, условия которого размещены на Официальном сайте Оператора; | "**Tarif rejasi**" | maxsus tarif rejasi – Abonent tomonidan ushbu Shartnomaga qo'shilishda tanlangan va Qo'shilish to'g'risidagi Arizada ko'rsatilgan, shartlari Operatorning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan; |
| «**Условия предоставления рассрочки**» | совокупность положений, установленных в Приложении № 1 к Заявлению о присоединении, включающая краткие характеристики Мобильного устройства, Таблицу расчета платежей, а также иные | "**Muddatli to'lov shartlari**" | Qo'shilish to'g'risidagi arizaga 1-ilovada belgilangan, Mobil qurilmaning qisqacha tavsifini, To'lovlarni hisoblash jadvalini, shuningdek, Abonent tomonidan oylik to'lovlarni amalga oshirish tartibini belgilovchi boshqa |

условия, определяющие порядок внесения Абонентом Ежемесячных платежей;

shartlarni o‘z ichiga olgan qoidalar majmui;

| | |
|---|---|
| «**Услуги**» | телекоммуникационные услуги, оказываемые Оператором Абоненту в рамках настоящего Договора на условиях выбранного Абонентом Тарифного плана. |
| “**Xizmatlar**” | Operator tomonidan mazkur Shartnoma doirasida Abonentga u tanlagan Tarif rejasi shartlariga muvofiq ko‘rsatiladigan telekommunikatsiya xizmatlari. |

## 2. ПРЕДМЕТ ДОГОВОРА

## 2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. В соответствии с условиями настоящего Договора:

2.1. Mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq:

(i) Оператор, на основании подписанного Абонентом Заявления о присоединении, передает Абоненту в собственность Мобильное устройство на условиях, предусмотренных Условиями предоставления рассрочки, а также обязуется оказывать Абоненту Услуги в течение срока действия Договора при условии своевременной оплаты Абонентом Ежемесячных платежей;

(i) Operator Abonent tomonidan imzolangan Qo‘shilish to‘g‘risidagi ariza asosida, Muddatli to‘lovni taqdim etish shartlarida nazarda tutilgan tartibda Mobil qurilmani Abonentning mulkiga topshiradi, shuningdek, Abonent Oylik to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘lagan taqdirda, Shartnomaning amal qilish muddati davomida unga Xizmatlar ko‘rsatish majburiyatini oladi;

(ii) Абонент обязуется принять Мобильное устройство, а также своевременно и в полном объеме вносить Ежемесячные платежи в соответствии с условиями настоящего Договора.

(ii) Abonent Mobil qurilmani qabul qilib olish hamda mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq Oylik to‘lovlarni o‘z vaqtida va to‘liq hajmda amalga oshirish majburiyatini oladi.

2.2. Абонент подтверждает свое понимание и выражает полное согласие с тем, что в рамках настоящего Договора:

2.2. Abonent ushbu Shartnoma doirasida quyidagilarni tushunganini tasdiqlaydi va ularga to‘liq rozilik bildiradi:

(i) Услуги оказываются Абоненту в течение Контрактного периода в соответствии с Тарифным планом, выбранным Абонентом и указанным в Условиях предоставления рассрочки;

(i) Xizmatlar Abonentga Kontrakt davri mobaynida Abonent tomonidan tanlangan hamda Muddatli to‘lov shartlarida ko‘rsatilgan Tarif rejasiga muvofiq ko‘rsatiladi;

(ii) по окончании Контрактного периода, а также в случае досрочного прекращения настоящего Договора, Абонент автоматически переводится на один из публичных тарифных планов «Oila» действующий на дату досрочного погашения – в зависимости от Тарифного плана, изначально выбранного Абонентом и указанного в Условиях предоставления рассрочки.

(ii) Kontrakt davri tugaganidan so‘ng, shuningdek, ushbu Shartnoma muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda, Abonent dastlab tanlagan va Muddatli to‘lov shartlarida ko‘rsatilgan Tarif rejasiga qarab, muddatidan oldin to‘lash sanasida amal qilayotgan “Oila” ommaviy tarif rejalaridan biriga avtomatik tarzda o‘tkaziladi.

2.3. Тарифный план, выбранный Абонентом при присоединении к настоящему Договору и указанный в Заявлении о присоединении, применяется к Абоненту в течение всего Контрактного периода независимо от прекращения подключения новых абонентов к такому Тарифному плану, изменения его коммерческого наименования либо введения Оператором иных тарифных планов.

2.3. Tarif rejasi Abonent tomonidan mazkur Shartnomaga qo‘shilish vaqtida tanlangan va Qo‘shilish to‘g‘risidagi arizada ko‘rsatilgan bo‘lib, Kontrakt davri davomida, mazkur Tarif rejasiga yangi Abonentlarni ulashni to‘xtatish, uning tijoriy nomini o‘zgartirish yoki Operator tomonidan boshqa tarif rejalarini joriy etishdan qat’i nazar, Abonentga nisbatan qo‘llaniladi.

2.4. Абонент подтверждает свое понимание и

2.4. Abonent ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z

выражает полное согласие с тем, что до полного исполнения Абонентом обязательств по настоящему Договору Абонент не вправе пользоваться услугами «Переоформление номера», «Замена номера», «Перенос номера» и «Смена тарифного плана», «Доверительный платеж», «Доверительные минуты и гигабайты». Возможность использования указанных услуг предоставляется Абоненту после окончания Контрактного периода и полного погашения задолженности.

majburiyatlarini to'liq bajarmagunga qadar «Raqamni qayta rasmiylashtirish», «Raqamni almashtirish», «Raqamni ko'chirish», «Tarif rejasini o'zgartirish», «Ishonchli to'lov», «Ishonchli daqiqalar va gigabaytlar» xizmatlaridan foydalanishga haqli emasligini tushunadi va bunga to'liq roziligini bildiradi. Ushbu xizmatlardan foydalanish imkoniyati Abonentga Shartnoma muddati tugagandan va qarzi to'liq qoplangandan keyin taqdim etiladi.

## 3. ПОРЯДОК ЗАКЛЮЧЕНИЕ ДОГОВОРА

3.1. Заключение Договора осуществляется в следующем порядке:

3.1.1. Абонент соглашается с условиями настоящего Договора путем присоединения к Договору в целом посредством подписания Заявления о присоединении;

3.1.2. Заявление о присоединении подписывается непосредственно Абонентом и подается им лично.

3.1.3. Подав подписанное Заявление о присоединении в порядке, предусмотренным Договором, Заявитель подтверждает, что он соглашается с условиями настоящего Договора и выбранного Тарифного плана и обязуется их соблюдать;

3.1.4. При подаче Заявления о присоединении Заявитель должен предоставить Оператору оригиналы Паспорта / ID-карты или водительского удостоверения нового формата.

3.1.5. Абонент подтверждает свое понимание и выражает полное согласие с тем, что одновременно с получением соответствующего документа, указанного в пункте 3.1.4 настоящего Договора, Оператор осуществляет Скоринг Заявителя и, по результатам проведенной оценки, принимает одно из следующих решений:

a) принимает Заявление о присоединении и передает Мобильное устройство; или

b) отказывает Заявителю в заключении Договора и установлении договорных отношений.

3.1.6. Оператор не обязан объяснять причины отказа в заключении Договора.

3.2. Датой заключения Договора признается дата принятия Заявления о присоединении.

3.3. Местом заключения Договора признается - г. Ташкент, Республика Узбекистан.

## 3. SHARTNOMA TUZISH TARTIBI

3.1. Shartnoma tuzish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

3.1.1. Abonent Qo'shilish to'g'risidagi arizani imzolash orqali Shartnomaga to'liq qo'shiladi va uning shartlariga rozilik bildiradi;

3.1.2. Qo'shilish to'g'risidagi ariza bevosita Abonentning o'zi tomonidan imzolanadi va shaxsan topshiriladi.

3.1.3. Shartnomada belgilangan tartibda imzolangan Qo'shilish to'g'risidagi arizani taqdim etish orqali Ariza beruvchi ushbu Shartnoma va tanlangan Tarif rejasi shartlariga roziligini va ularga rioya qilish majburiyatini tasdiqlaydi;

3.1.4. Qo'shilish to'g'risidagi arizani topshirishda Ariza beruvchi Operatorga pasport/ID-karta yoki yangi na-munadagi haydovchilik guvohnomasining asl nusxasini taqdim etishi lozim.

3.1.5. Abonent ushbu Shartnomaning 3.1.4-bandida ko'rsatilgan tegishli hujjatni olish bilan bir vaqtda Operator Ariza beruvchining skoringini o'tkazishini hamda ushbu baholash natijalariga ko'ra quyidagi qarorlardan birini qabul qilishini tushunishini tasdiqlaydi va bunga to'liq rozilik bildiradi:

a) qo'shilish to'g'risidagi arizani qabul qiladi va Mobil qurilmani topshiradi; yoki

b) Arizachiga Shartnoma tuzishni va ish munosabatlarini o'rnatishni rad etadi.

3.1.6. Operator Shartnoma tuzishni rad etish sabablarini tushuntirishga majbur emas.

3.2. Qo'shilish to'g'risidagi ariza qabul qilingan sana Shartnomaning tuzilgan sanasi deb tan olinadi..

3.3. Shartnoma tuzilgan joy - Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi hisoblanadi.

## 4. ПОРЯДОК ОПЛАТЫ

## 4. TO'LOV TARTIBI

4.1. Внесение первого Ежемесячного платежа осуществляется Абонентом непосредственно перед передачей Мобильного устройства по Акту приема-передачи.

4.1. Birinchi Oylik to'lov Abonent tomonidan Mobil qurilmani Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi bo'yicha topshirishdan bevosita oldin amalga oshiriladi.

4.2. Каждое последующее списание Ежемесячного платежа осуществляется ежемесячно в дату и время, соответствующие дате и времени первоначального списания, до полного исполнения Абонентом обязательств по оплате рассрочки. В случае если первоначальное списание Ежемесячного платежа было осуществлено в последний календарный день месяца, который отсутствует в последующем календарном месяце, дата следующего списания устанавливается на последний календарный день такого месяца. В дальнейшем последующие списания Ежемесячного платежа осуществляются в соответствующее число календарного месяца.

4.2. Har bir keyingi Oylik to'lov Abonent muddatli to'lov bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajarguniga qadar, har oyda, dastlabki yechib olish sanasi va vaqtiga mos keladigan sana hamda vaqtda yechib olinadi. Agar Oylik to'lov dastlabki marta keyingi kalendar oyida mavjud bo'lmagan oyning oxirgi kalendar kunida yechib olingan bo'lsa, keyingi yechib olish sanasi o'sha oyning oxirgi kalendar kuniga belgilanadi. Keyinchalik Oylik to'lovning navbatdagi yechib olinishlari kalendar oyining shu sanasida amalga oshiriladi.

4.3. Списание денежных средств производится с Мобильного баланса.

4.3. Pul mablag'lari Mobil balansdan yechib olinadi.

4.4. В случае несвоевременной оплаты Ежемесячного платежа дата последующего списания переносится на дату успешного осуществления очередного Ежемесячного платежа в период действия настоящего Договора с учетом положений, предусмотренных пунктом 4.2.

4.4. Oylik to'lov o'z vaqtida to'lanmasa, keyingi yechib olish sanasi, ushbu Shartnomaning amal qilish davrida 4.2-band qoidalarini hisobga olgan holda, navbatdagi oylik to'lov muvaffaqiyatli amalga oshirilgan sanaga ko'chiriladi.

4.5. В случае если Абонентом просрочено несколько Ежемесячных платежей и на Мобильном балансе отсутствует сумма, достаточная для полного погашения всей образовавшейся задолженности, списание денежных средств осуществляется при наличии суммы, достаточной для полного списания по меньшей мере одного Ежемесячного платежа. При недостаточности денежных средств для списания одного Ежемесячного платежа списание не производится. После успешного списания просроченного Ежемесячного платежа дата последующего списания определяется в соответствии с пунктом 4.4 настоящего Договора, а Контрактный период пролонгируется пропорционально периоду просрочки.

4.5. Agar Abonent bir nechta oylik to'lovni o'tkazib yuborgan bo'lsa va uning Mobil balansida yuzaga kelgan barcha qarzdorlikni to'liq qoplash uchun mablag' yetarli bo'lmasa, pul mablag'lari kamida bitta oylik to'lovni to'liq yechib olishga yetadigan miqdor mavjud bo'lganda yechiladi. Bitta oylik to'lovni yechib olish uchun mablag' yetarli bo'lmagan taqdirda, pul yechilmaydi. Muddati o'tgan oylik to'lov muvaffaqiyatli yechib olinganidan so'ng, navbatdagi yechib olish sanasi mazkur Shartnomaning 4.4-bandiga muvofiq belgilanadi, Shartnoma muddati esa kechiktirilgan davrga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

4.6. Абонент вправе досрочно погасить задолженность за Мобильное устройство до даты предполагаемой выплаты Остаточной стоимости. При этом, Абонент подтверждает свое понимание и выражает полное согласие с тем, что:

4.6. Abonent Mobil qurilma uchun qarzdorlikni Qoldiq qiymat to'lanishi kutilayotgan sanadan oldinroq to'lashga haqli. Bunda, Abonent quyidagilarni tushunganini tasdiqlaydi va ularga to'liq rozilik bildiradi:

(i) Абонент автоматически переводится на один из публичных тарифных планов «Oila» действующий на дату досрочного погашения – в зависимости от изначального тарифного плана, выбранного Абонентом, до присоединения к Договору;

(i) Abonent, Shartnomaga qo'shilishdan oldin tanlagan dastlabki tarif rejasiga qarab, avtomatik tarzda ommaviy tarif rejalaridan biriga — "Oila Ultra" yoki "Oila Mega"ga o'tkaziladi;

(ii) стоимость Услуг за соответствующий

(ii) tegishli Hisobot davri uchun Xizmatlar qiymati

Отчетный период подлежит перерасчету пропорционально количеству неиспользованных дней, а сумма образовавшейся переплаты возвращается на Мобильный баланс Абонента.

foydalanilmagan kunlar soniga mutanosib ravishda qayta hisoblanadi va hosil bo‘lgan ortiqcha to‘lov summasi Abonentning Mobil balansiga qaytariladi.

## 5. ПРАВА И ОБЯЗАННОСТИ СТОРОН

5.1. Абонент обязуется:

5.1.1. соблюдать условия настоящего Договора;

5.1.2. принять Мобильное устройство в соответствии с условиями Договора по Акту приема-передачи;

5.1.3. оплачивать Ежемесячные платежи как предусмотрено Договором путем своевременного внесения необходимых сумм на Мобильный баланс. К установленному моменту списания Оператором каждого Ежемесячного платежа по Договору Абонент обязан обеспечивать наличие на Мобильном балансе суммы для погашения каждого Ежемесячного платежа в полном объеме. При этом Услуги предоставляются Абоненту только в случае успешного списания полной суммы Ежемесячного платежа в соответствующем Отчетном периоде.

5.2. Абонент вправе:

5.2.1. после присоединения к настоящему Договору пользоваться Услугами в течение Контрактного периода при условии своевременной оплаты Ежемесячных платежей по Договору;

5.2.2. расторгнуть Договор в случае возврата Мобильного устройства вследствие заводского брака, подтвержденного официальным сервисным центром. В таком случае Оператор производит возврат всех уплаченных Абонентом Ежемесячных платежей на Мобильный баланс, за исключением стоимости оказанных Услуг.

5.3. Оператор обязуется:

5.3.1. передать Абоненту Мобильное устройство по Акту приема-передачи в надлежащем состоянии после оплаты Абонентом первого Ежемесячного платежа в соответствии с настоящим Договором;

5.3.2. предоставлять Абоненту информацию о состоянии расчетов и задолженности по рассрочке;

5.3.3. оказывать Абоненту Услуги на условиях, предусмотренных Договором, при условии своевременной оплаты Ежемесячных платежей.

5.4. Оператор вправе:

5.4.1. отказать Абоненту в предоставлении Мобильного устройства в случае отказа Абонента от подписания Акта приема-передачи;

5.4.2. требовать от Абонента оплаты

## 5. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Abonent quyidagilarga majbur:

5.1.1. ushbu Shartnoma shartlariga rioya qilishga;

5.1.2. Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi bo‘yicha Shartnoma shartlariga muvofiq Mobil qurilmani qabul qilishga;

5.1.3. Shartnomada nazarda tutilgan har oylik to‘lovlarni Mobil balans raqamiga kerakli summalarni o‘z vaqtida kiritish yo‘li bilan to‘lab borish. Operator Shartnoma bo‘yicha har bir oylik to‘lovni yechib olishi uchun belgilangan vaqtga qadar Abonent o‘z Mobil balans raqamida har bir oylik to‘lovni to‘liq hajmda qoplash uchun yetarli mablag‘ bo‘lishini ta’minlashi shart. Bunda Xizmatlar Abonentga faqat tegishli Hisobot davrida oylik to‘lovning to‘liq summasi muvaffaqiyatli yechib olingan taqdirdagina taqdim etiladi.

5.2. Abonent quyidagi huquqqa ega:

5.2.1. mazkur Shartnomaga qo‘shilgandan so‘ng, Shartnoma bo‘yicha Oylik to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘lash sharti bilan, Shartnoma amal qilish davrida Xizmatlardan foydalanish;

5.2.2. Rasmiy servis markazi tomonidan tasdiqlangan zavod nuqsoni sababli Mobil qurilma qaytarilgan taqdirda, Shartnomani bekor qilish. Bunday holda, Operator Abonent tomonidan to‘langan barcha oylik to‘lovlarni Mobil balansga qaytaradi, ko‘rsatilgan Xizmatlar qiymati bundan mustasno.

5.3. Operator quyidagilarga majbur:

5.3.1. Abonent ushbu Shartnomaga muvofiq birinchi oylik to‘lovni amalga oshirganidan so‘ng, Mobil qurilmani qabul qilish-topshirish dalolatnomasi bo‘yicha soz holatda Abonentga topshirish;

5.3.2. Abonentga hisoblash holati va muddatli to‘lov bo‘yicha qarzdorlik to‘g‘risida ma’lumot taqdim etish;

5.3.3. Oylik to‘lovlar o‘z vaqtida to‘langani taqdirda, Abonentga Shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida Xizmatlar ko‘rsatish.

5.4. Operator quyidagi huquqlarga ega:

5.4.1. Abonent Qabul qilish-topshirish dalolatnomasini imzolashdan bosh tortgan taqdirda, unga Mobil qurilmani taqdim etishdan bosh tortish;

5.4.2. Abonentdan ushbu Shartnoma shartlariga

Ежемесячных платежей в соответствии с условиями настоящего Договора;

muvofiq Oylik to'lovlarni to'lashni talab qilish;

5.4.3. приостановить предоставление Услуги в случае отсутствия на Мобильном балансе денег, достаточных для списания Ежемесячного платежа. При этом доступ к Услугам в соответствующем Отчетном периоде будет предоставлен только после оплаты полной суммы соответствующих Ежемесячных платежей по Договору на период времени до окончания Отчетного периода;

5.4.3. Mobil balansda Oylik to'lovni yechib olish uchun yetarli mablag' bo'lmagan taqdirda, Xizmat ko'rsatishni to'xtatib turish. Bunda tegishli Hisobot davrida Xizmatlardan foydalanish imkoniyati faqat Hisobot davri tugaguniga qadar Shartnoma bo'yicha tegishli Oylik to'lovlarning to'liq summasi to'langanidan so'ng taqdim etiladi;

5.4.4. заблокировать использование Мобильного устройства в случае просрочки оплаты Ежемесячных платежей в соответствии с пунктом 10.5 настоящего Договора. При этом Абоненту будут доступны звонки в экстренные службы;

5.4.4. ushbu Shartnomaning 10.5-bandiga muvofiq Oylik to'lovlarni to'lash muddati o'tkazib yuborilgan taqdirda, Mobil qurilmadan foydalanishni bloklash. Bunda Abonent uchun favqulodda xizmatlarga qo'ng'iroq qilish imkoniyati saqlanib qoladi;

5.4.5. в случае невыполнения Абонентом обязательств по настоящему Договору, Оператор вправе передать право требования задолженности (включая Остаточную стоимость) Страховой компании или иному третьему лицу. Абонент соглашается с тем, что в этом случае Оператор вправе предоставлять таким третьим лицам информацию относительно Абонента, включая его персональные данные, сведения об объемах и стоимости полученных Абонентом услуг связи, суммы задолженности и иную необходимую информацию.

5.4.5. Abonent ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, Operator qarzdorlikni (shu jumladan Qoldiq qiymatni) talab qilish huquqini Sug'urta kompaniyasiga yoki boshqa uchinchi shaxsga o'tkazishga haqli. Abonent bu holda Operator bunday uchinchi shaxslarga Abonentga oid ma'lumotlarni, jumladan uning shaxsiy ma'lumotlarini, Abonent tomonidan olingan aloqa xizmatlari hajmi va qiymati haqidagi svedeniyalarni, qarzdorlik summasini hamda boshqa zarur axborotni taqdim etishga haqli ekanligiga rozilik beradi.

## 6. ПРИЕМКА МОБИЛЬНОГО УСТРОЙСТВА

## 6. MOBIL QURILMANI QABUL QILISH

6.1. Передача Мобильного устройства Абоненту осуществляется Оператором по Акту приема-передачи, подписываемому Сторонами в момент фактической передачи Мобильного устройства.

6.1. Mobil qurilmani Abonentga topshirish Operator tomonidan Mobil qurilma amalda topshirilayotgan paytda Tomonlar imzolaydigan Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.

6.2. При принятии Мобильного устройства Абонент обязан произвести визуальный осмотр целостности упаковки, а также наличия видимых дефектов. Принятие Мобильного устройства Абонентом подтверждает отсутствие претензий по количеству, ассортименту и иным характеристикам Мобильного устройства, которые могут быть выявлены при визуальном осмотре. При этом Абонент сохраняет право предъявлять требования, связанные с качеством Мобильного устройства, в порядке и в сроки, установленные законодательством Республики Узбекистан.

6.2. Mobil qurilmani qabul qilishda Abonent qadoqning butunligini, shuningdek, ko'rinadigan nuqsonlar mavjudligini ko'zdan kechirishi shart. Mobil qurilmaning Abonent tomonidan qabul qilinishi uning soni, assortimenti va vizual ko'rik paytida aniqlanishi mumkin bo'lgan boshqa xususiyatlari bo'yicha e'tirozlar yo'qligini tasdiqlaydi. Bunda, Abonent O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda va muddatlarda Mobil qurilmaning sifati bilan bog'liq talablarni qo'yish huquqini saqlab qoladi.

6.3. Подписание Акта приема-передачи Абонентом подтверждает, что гарантийные обязательства производителя ему разъяснены и приняты.

6.3. Qabul qilish-topshirish dalolatnomasining Abonent tomonidan imzolanishi ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari Abonentga tushuntirilganligini va Abonent tomonidan qabul qilinganligini tasdiqlaydi.

6.4. Все последующие обращения Абонента относительно дефектов, выявленных в период гарантийной эксплуатации, осуществляются исключительно в рамках гарантийных обязательств

6.4. Abonentning kafolatli foydalanish davrida aniqlangan nuqsonlar bo'yicha barcha keyingi murojaatlari faqat ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari doirasida vakolatli xizmat ko'rsatish

производителя через уполномоченные сервисные центры.

6.5. Право собственности на Мобильное устройство, а также риск случайной утраты/повреждения/гибели Мобильного устройства переходит к Абоненту с момента передачи Мобильного устройства Оператором и подписания Акта приема-передачи.

## 7. ГАРАНТИЙНЫЕ ОБЯЗАТЕЛЬСТВА

7.1. Мобильное устройство, предоставляемое Абоненту в рамках настоящего Договора, обеспечивается исключительно гарантийными обязательствами производителя.

7.2. Гарантийный срок на Мобильное устройство (далее – «Гарантийный срок») исчисляется с даты его передачи Абоненту и подтверждается соответствующим Актом приема-передачи.

7.3. Абонент признает и соглашается, что:

– гарантия предоставляется только производителем Мобильного устройства;

– условия, объем и порядок предоставления гарантий определяются исключительно производителем;

– такие условия могут предусматривать ограничения, исключения и специальные требования, не отраженные в настоящем Договоре.

7.4. Оператор не предоставляет каких-либо гарантий в отношении Мобильного устройства, не несет ответственности за его соответствие ожиданиям Абонента, а также не принимает на себя обязательств сверх гарантийных условий, установленных производителем.

7.5. Все обращения по гарантийным случаям осуществляются Абонентом напрямую в уполномоченные сервисные центры производителя либо иные организации, указанные в гарантийных документах.

7.6. Адреса уполномоченных сервисных центров производителя размещены на Официальном сайте Оператора.

## 8. ОГРАНИЧЕНИЯ ПО ГАРАНТИИ

8.1. Гарантия не распространяется на следующие случаи:

(a) Мобильное устройство после его приёмки подверглось механическим повреждениям, не являющимся фабричными дефектами (трещины на экране, разбитый корпус и т.д.);

markazlari orqali amalga oshiriladi.

6.5. Mobil qurilmaga egalik huquqi, shuningdek, Mobil qurilmaning tasodifiy yoʻqolishi/shikastlanishi/nobud boʻlishi xavfi Operator tomonidan Mobil qurilma topshirilgan va Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab Abonentga oʻtadi.

## 7. KAFOLAT MAJBURIYATLARI

7.1. Ushbu Shartnoma doirasida Abonentga taqdim etiladigan mobil qurilma faqat ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari bilan taʼminlanadi.

7.2. Mobil qurilmaning kafolat muddati (bundan keyin “Kafolat muddati” deb yuritiladi) u Abonentga topshirilgan kundan boshlab hisoblanadi va tegishli Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi bilan tasdiqlanadi.

7.3. Abonent quyidagilarni tan oladi va rozi boʻladi:

– kafolat faqat Mobil qurilma ishlab chiqaruvchisi tomonidan beriladi;

– kafolatlarni berish shartlari, hajmi va tartibi faqat ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilanadi;

– bunday shartlar ushbu Shartnomada koʻrsatilmagan cheklovlar, istisnolar va maxsus talablarni oʻz ichiga olishi mumkin.

7.4. Operator Mobil qurilmaga nisbatan hech qanday kafolat bermaydi, uning sifati, ishlashi yoki Abonent kutganidek boʻlishi uchun javobgar emas, shuningdek, ishlab chiqaruvchi belgilagan kafolat shartlaridan tashqari majburiyatlarni oʻz zimmasiga olmaydi.

7.5. Kafolatli holatlarga oid barcha murojaatlar Abonent tomonidan toʻgʻridan-toʻgʻri ishlab chiqaruvchining vakolatli servis markazlariga yoki kafolat hujjatlarida koʻrsatilgan boshqa tashkilotlarga yoʻnaltiriladi.

7.6. Ishlab chiqaruvchining vakolatli servis markazlari manzillari Operatorning rasmiy saytida joylashtirilgan.

## 8. KAFOLAT CHEKLOVLARI

8.1. Kafolat quyidagi holatlarga nisbatan amal qilmaydi:

(a) Mobil qurilma qabul qilingandan soʻng zavod nuqsoni boʻlmagan mexanik shikastlanishlarga (ekrandagi yoriqlar, korpusning sinishi va hokazo) uchragan boʻlsa;

(b) Мобильное устройство и его компоненты подверглось коррозии, окислению, попаданию инородных материалов или жидкости, воздействию химикатов;

(b) Mobil qurilma va uning tarkibiy qismlari korroziyaga, oksidlanishga, begona materiallar yoki suyuqliklar, kimyoviy moddalar ta'siriga uchragan bo'lsa;

(c) Мобильное устройство было вскрыто, разобрано, изменено или отремонтировано сторонними лицами или сервисами, не уполномоченными производителем, и/или если Мобильное устройство было отремонтировано с использованием несанкционированных деталей, или если серийный номер, код даты, IMEI Мобильного устройства были каким-либо образом удалены, стерты, повреждены, изменены;

(c) Mobil qurilma ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilmagan uchinchi shaxslar yoki xizmatlar tomonidan ochilgan, qismlarga ajratilgan, o'zgartirilgan yoki ta'mirlangan va/yoki Mobil qurilma ruxsat etilmagan qismlardan foydalanib ta'mirlangan yoki Mobil qurilmaning seriya raqami, sana kodi, IMEI har qanday tarzda o'chirilgan, o'chirilib tashlangan, shikastlangan, o'zgartirilgan bo'lsa;

(d) Мобильное устройство подверглось модификациям или в их программное обеспечение внесены изменения (включая рутирование (root) или прошивку);

(d) Mobil qurilma modifikatsiya qilingan yoki uning dasturiy ta'minotiga o'zgartirishlar kiritilgan (jumladan, root yoki proshivka) bo'lsa;

(e) Мобильное устройство использовалось с оборудованием, продукцией или системами, не соответствующими стандартам, или несертифицированными аксессуарами, такими как зарядные устройства, кабели и пр.;

(e) Mobil qurilma standartlarga mos kelmaydigan uskunalar, mahsulotlar yoki tizimlar yoxud quvvatlash moslamalari, kabellar va boshqalar kabi sertifikatlanmagan aksessuarlar bilan ishlatilgan bo'lsa;

(f) естественный износ Мобильного устройства вследствие нормального использования (износ батареи, перегрев процессора и т.п.);

(f) Mobil qurilmaning normal foydalanish natijasida tabiiy eskirishi (batareyaning eskirishi, protsessorning qizib ketishi va hokazo);

(g) утеря или кража Мобильного устройства.

(g) Mobil qurilmaning yo'qolishi yoki o'g'irlanishi.

## 9. ВОЗВРАТ И ЗАМЕНА МОБИЛЬНОГО УСТРОЙСТВА

## 9. MOBIL QURILMANI QAYTARISH VA ALMASHTIRISH

9.1. Абонент подтверждает и соглашается, что Мобильное устройство относится к категории непродовольственных товаров, которые в соответствии с правилами розничной торговли Республики Узбекистан не подлежат возврату или обмену на аналогичный товар в случае их продажи надлежащего качества.

9.1. Abonent Mobil qurilma O'zbekiston Respublikasining chakana savdo qoidalariga muvofiq tegishli sifatda sotilgan taqdirda qaytarilmaydigan yoki o'xshash tovarga almashtirilmaydigan nooziq-ovqat tovarlari toifasiga kirishini tasdiqlaydi va bunga rozilik bildiradi.

9.2. Возврат или замена Мобильного устройства после его передачи Оператором Абоненту возможна только в случае выявления в Мобильном устройстве заводского брака в период Гарантийного срока.

9.2. Operator tomonidan Abonentga topshirilgandan so'ng, Mobil qurilmani qaytarish yoki almashtirish faqat Kafolat muddati davomida Mobil qurilmada zavod nuqsonlari aniqlangan taqdirdagina mumkin bo'ladi.

9.3. В случае выявления заводского брака в соответствии с пунктом 9.2 настоящего Договора по усмотрению Абонента:

9.3. Ushbu Shartnomaning 9.1-bandiga muvofiq zavoddagi nuqson aniqlangan taqdirda, Abonentning ixtiyoriga ko'ra:

(a) производится замена Мобильного устройства с заводским браком на новое аналогичное Мобильное устройство;

(a) Zavod nuqsoni bo'lgan Mobil qurilma yangi, xuddi shunday Mobil qurilmaga almashtiriladi;

(b) осуществляется возврат Мобильного устройства Абонентом. В таком случае, денежные средства, уплаченные в счет рассрочки возвращаются Абоненту на Мобильный баланс.

(b) Abonent tomonidan Mobil qurilma qaytariladi. Bunday holda, muddatli to'lov hisobiga to'langan pul mablag'lari Abonentning Mobil balansiga qaytariladi.

9.4. Для подтверждения заводского брака Абоненту необходимо обратиться в официальный

9.4. Zavod nuqsonini tasdiqlash uchun Abonent ishlab chiqaruvchining rasmiy xizmat ko'rsatish

сервисный центр производителя и получить акт, подтверждающий наличие заводского брака, выданный официальным сервисным центром.

9.5. Для возврата либо замены Мобильного устройства с заводским браком совместно с актом, указанным в пункте 9.4 настоящего Договора, Абонент обязан представить Оператору следующий комплект документов:

– Акта приема-передачи;

– оригинал паспорта, ID-карты Абонента или водительское удостоверение нового формата.

## 10. ОТВЕТСТВЕННОСТЬ СТОРОН

10.1. Стороны несут ответственность за неисполнение или ненадлежащее исполнение настоящего Договора в соответствии с законодательством Республики Узбекистан и настоящим Договором.

10.2. Абонент возмещает убытки в полной сумме сверх сумм неустоек, подлежащих уплате в соответствии с законодательством Республики Узбекистан.

10.3. Применение ответственности не освобождает Стороны от выполнения своих обязательств по настоящему Договору.

10.4. В случае недостаточности денежных средств на Мобильном балансе Абонента для списания Ежемесячного платежа в очередном Отчетном периоде Ежемесячный платеж не списывается, а предоставление услуг в рамках соответствующего Тарифного плана приостанавливается до момента успешного списания Ежемесячного платежа. При этом:

(i) доступ к пакетам услуг, включенным в Тарифный план (минуты, интернет-трафик, SMS), не предоставляется;

(ii) дальнейшее использование услуг связи будет осуществляться по стандартной тарификации согласно условиям Тарифного плана (оплата по мере потребления), за счет денежных средств, имеющихся на Мобильном балансе Абонента;

(iii) входящие услуги связи не ограничиваются;

(iv) участники группы не вправе пользоваться общим интернет-трафиком, предоставляемым в рамках Тарифного плана;

(v) участники группы вправе пользоваться услугами связи на условиях стандартной тарификации согласно условиям Тарифного плана (оплата по мере потребления), а также интернет-трафиком и иными пакетами услуг, приобретенными ими самостоятельно.

markaziga murojaat qilishi va rasmiy xizmat ko‘rsatish markazi tomonidan berilgan zavod nuqsonini tasdiqlovchi dalolatnomani olishi lozim.

9.5. Ushbu Shartnomaning 9.3-bandida ko‘rsatilgan dalolatnoma bilan birga zavod nuqsoni bo‘lgan Mobil qurilmani qaytarish yoki almashtirish uchun Abonent Operatorga quyidagi hujjatlar to‘plamini taqdim etishi shart:

– Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi;

– Abonentning pasporti, ID-kartasi yoki yangi namunadagi haydovchilik guvohnomasining asl nusxasi.

## 10. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

10.1. Tomonlar ushbu Shartnomani bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu Shartnomaga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

10.2. Abonent O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq to‘lanishi lozim bo‘lgan jarima miqdoridan tashqari, zararlarni to‘liq hajmda qoplaydi.

10.3. Javobgarlikni qo‘llash Tomonlarni ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

10.4. Navbatdagi Hisobot davrida Oylik to‘lovni yechib olish uchun Abonentning Mobil hisobida mablag‘ yetarli bo‘lmasa, Oylik to‘lov yechib olinmaydi va tegishli Tarif rejasi doirasidagi xizmatlar ko‘rsatish Oylik to‘lov muvaffaqiyatli yechib olinguniga qadar to‘xtatib turiladi. Bunda:

(i) Tarif rejasiga kiritilgan xizmatlar to‘plamlaridan (daqiqalar, internet-trafik, SMS) foydalanish imkoniyati taqdim etilmaydi;

(ii) aloqa xizmatlaridan keyinchalik foydalanish Abonentning Mobil hisobidagi mavjud pul mablag‘lari hisobidan Tarif rejasi shartlariga muvofiq standart tariflar bo‘yicha (foydalanishga qarab to‘lash) amalga oshiriladi;

(iii) kiruvchi aloqa xizmatlari cheklanmaydi;

(iv) guruh a’zolari Tarif rejasi doirasida taqdim etiladigan umumiy internet-trafikdan foydalana olmaydi;

(v) guruh a’zolari aloqa xizmatlaridan Tarif rejasi shartlariga muvofiq standart tariflar bo‘yicha (foydalanishga qarab to‘lash), shuningdek, internet-trafik hamda o‘zlari mustaqil sotib olgan boshqa xizmatlar to‘plamlaridan foydalanishga haqli.

10.5. Абонент подтверждает свое понимание и выражает полное согласие с тем, что в случае просрочки Абонентом оплаты Ежемесячных платежей на срок более 15 (пятнадцати) календарных дней, Оператор вправе без предварительного уведомления Абонента:

